



TOSHKENT SHAHRIDA 2019 YIL YANVAR- MAY OYLARI UCHUNSANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO`RSATKICHLARI

Sanoat mahsuloti hajmi

19212,4 mlrd.so‘mni,

sanoat ishlab chiqarish

indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 8541,9 mlrd.so‘mni va

o’sish sur’ati 106,6 % tashkil etdi.

Iste’mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi


44,5 % ni tashkil etdi.

Sanoatishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 66,5 %

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2019 yilning yanvar - may oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko’rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 19212,4 mlrd.so‘mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o’tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o’sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 102,6 %, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 86,0 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 108,0 % va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 108,5 % ni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 86,0 %) ● Ishlab chiqaradigan sanoat (indeks - 102,6 %)
- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (indeks - 108,0 %)
- Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig’ish va utilizatsiya qilish (indeks - 108,5%)



TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o'rganilganda, joriy yilning yanvar - may oyida Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1154,0 mlrd.so'mlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 6,0 % ni tashkil etgan.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 83,2 % va boshqa tog'-kon sanoati faoliyati esa 96,7 % ga oshganini kuzatish mumkin.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

2018 yil yanvar-mayda
ishlab chiqarilgan



TABIYIY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OLİSH



2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 83,2 % da

2019 yil yanvar-mayda
ishlab chiqarilgan



BOSHQA TOG'-KON SANOATI



2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 96,7 % da




ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari

tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi 16553,2 mlrd.so'mni va o'tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 102,6 %. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,0 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali – 25,2 %, o'rta-quyi texnologiyali – 35,3 %, quiyi texnologiyali – 35,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 45,4 % ga, tog'-kon sanoatida texnik xizmatlar 44,0 % ga kamaygan bo'lsa, gazsimon yoqilg'i ishlab chiqarish va taqsimlash 79,0% ga, elektr energiyasi ishlab chiqarish asbob-uskunalar 48,8 % ga , avtotransport vositalari,treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish 27,5 % ga oshganligini kuzatamiz.



2018 yil yanvar-mayda
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



1560663,6
mln.so'm



2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 102,5 % da



1736572,6
mln.so'm



855609,0
mln.so'm

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



1093641,5
mln.so'm

2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 118,1 % da

TAMAKI MAHSULOTLARI



21516,7
mln.so'm



30455,6
mln.so'm

2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 85,7 % da



**2018 yil yanvar-mayda
ishlab chiqarilgan**

**ISHLAB CHIQARADIGAN
(QAYTA ISHLASH) SANOATI**

TEKSTIL MAHSULOTLARI



**813000,1
mln.so'm**



**2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 117,3 % da**

**2019 yil yanvar-mayda
ishlab chiqarilgan**



**950033,2
mln.so'm**



**362853,6
mln.so'm**



**2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 89,3 % da**



**450589,3
mln.so'm**



**90201,2
mln.so'm**



**2018-yil yanvar-mayga
nisbatan 127,5 % da**



**122466,4
mln.so'm**



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO'LIMI



SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIIYA QILISH.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 410,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,1 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019 yil yanvar-may oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5% ga ko'paygan.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalari tomonidan 8541,9 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2558,4 mlrd.so'mga etkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 29,9 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 5668,6 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 66,4 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 314,9 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 3,7% tashkil etdi.


2019 YILNING YANVAR-MAY OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Toshkent shaxar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Yashnobod tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (12,4 % ulushini), Chilonzor (11,3 %) Olmazor (10,6 %), Bektemir (10,1%) va Sirg'ali (9,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (6,6 %) tumani, Yunusobod (6,8 %) va Uchtepa (7,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**2019 YILNING YANVAR-MAY OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL
TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMI, % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir tumani (117,7%), Chilonzor tumani (110,3 %) va Yunusobod tumanlarida (107,1) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Olmazor tumani (103,1%) Mirzo Ulug'bek tumani (104,0%) ga to'g'ri keladi.



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Mirobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 13,8 % ulushini), Yashnobod tumani (12,7 %), Bektemir tumani (10,2 %), Shayxontohur tumani (9,7%) va Sergeli tumani (9,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,2 %), Uchtepa (5,4 %), Chilonzor (7,3 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 YILNING YANVAR- MAY OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA






SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 65,5 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,1 %), Yakkasaroy (90,5%), va Yunusobod (87,8 %), Olmazor (85,7%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (29,1 %), Mirzo Ulug'bek (47,4%) va Shayxontoxur (54,9 %), tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefonni: (0371) 230-88-16